



## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **215,1 mln. AQSH dollariga** yetdi va **2022-** yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **40,6 mln. AQSH dollariga** yoki **23,3 %** ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023-y.: **215,1** +**23,3 %**

(2022-y.: **174,4**)



Saldo

2023-y.: - **31,2** (2022-y.: - **41,0**)



#### Eksport

2023-y.: **91,9** +**37,9 %**

(2022-y.: **66,7**)



Tovarlar: **90,9**



Xizmatlar: **1,0**



#### Import

2023-y.: **123,1** +**14,3 %**

(2022-y.: **107,7**)



Tovarlar: **123,1**



Xizmatlar: -

Премия газлиник

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiyligi hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **91,9** mln. AQSH dollariga (**37,9** % ga ko‘paydi) va import hajmi **123,1** mln. AQSH dollariga (**14,3** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-31,2** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO’LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollar)

Rossiya	XXR	Afg'oniston	Qozog'iston	Turkiya
TSA – 31,4	TSA – 30,7	TSA – 48,4	TSA – 72,4	TSA – 10,0
Eksport: 14,0 Import: 17,4	Eksport: 10,4 Import: 20,3	Eksport: 48,4 Import: 0,0	Eksport: 6,0 Import: 66,4	Eksport: 5,7 Import: 4,3

 14,6 %	 14,3 %	 22,6 %	 33,7 %	 4,7 %
---	--	--	--	---

Sirdaryo viloyati jahoning **63** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**14,6 %**), XXRda (**14,3 %**), Afg'onistonda (**22,6 %**), Qozog'istonnda (**33,7 %**), Turkiyada (**4,7 %**) va Koreya Respublikasida (**0,2 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilmoxda.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollarri)

Afg'oniston – **48,4**



Qozog'iston – **72,4**



Qirg'iz Respublikasi – **2,0**



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Turkiya, Pokiston, Tojikiston va Rossiya davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **15** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollar'i)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Rossiya</b>	<b>107,7</b>	<b>15,0</b>	<b>26,1</b>
 <i>Eksport</i>	59,3	6,5	8,6
 <i>Import</i>	48,4	8,5	17,5
<b>XXR</b>	<b>44,4</b>	<b>34,1</b>	<b>30,8</b>
 <i>Eksport</i>	27,5	15,8	10,4
 <i>Import</i>	16,9	18,3	20,4
<b>Germaniya</b>	<b>3,6</b>	<b>2,8</b>	<b>1,6</b>
 <i>Eksport</i>	1,8	0,0	0,0
 <i>Import</i>	1,8	2,8	1,6
<b>Qozog'iston</b>	<b>77,0</b>	<b>49,9</b>	<b>71,2</b>
 <i>Eksport</i>	40,0	2,5	4,8
 <i>Import</i>	37,0	47,4	66,4
<b>Turkiya</b>	<b>6,6</b>	<b>9,9</b>	<b>9,8</b>
 <i>Eksport</i>	4,6	6,0	5,5
 <i>Import</i>	2,0	3,9	4,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>0,4</b>	<b>4,8</b>	<b>0,5</b>
 <i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,0
 <i>Import</i>	0,2	4,8	0,5
<b>Litva</b>	<b>0,0</b>	<b>0,5</b>	<b>0,0</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
 <i>Import</i>	0,0	0,5	0,0
<b>Fransiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,4</b>	<b>1,1</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
 <i>Import</i>	0,1	0,4	1,1

Davomi

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>1,7</b>	<b>1,5</b>	<b>1,9</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,5 0,2	0,4 1,1
<b>Afg'oniston</b>	<b>21,6</b>	<b>24,1</b>	<b>48,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	21,6 0,0	23,0 1,1
<b>Belarus</b>	<b>0,2</b>	<b>0,3</b>	<b>0,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 0,1	0,0 0,3
<b>Hindiston</b>	<b>0,2</b>	<b>0,4</b>	<b>0,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 0,1	0,0 0,4
<b>BAA</b>	<b>0,0</b>	<b>0,2</b>	<b>0,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,0	0,2 0,0
<b>Tojikiston</b>	<b>0,7</b>	<b>2,8</b>	<b>1,6</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,6 0,1	2,5 0,3
<b>Eron</b>	<b>0,9</b>	<b>1,6</b>	<b>0,7</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,5 0,4	0,5 1,1
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,0	0,0 0,0
<b>Italiya</b>	<b>0,8</b>	<b>8,4</b>	<b>3,1</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,4 0,4	0,0 8,4
<b>Polsha</b>	<b>0,3</b>	<b>0,2</b>	<b>0,9</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,3 0,0	0,7 0,2



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart)\*

	Hajm Mln. AQSH dollarri	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>215,1</b>	<b>123,3</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	15,3	159,7	7,1
Guliston t.	3,8	66,8	1,8
Mirzaobod t.	6,5	79,5	3,0
Oqoltin t.	1,6	113,0	0,7
Sardoba t.	1,6	51,6	0,7
Sayxunobod t.	14,7	98,7	6,8
Sirdaryo t.	59,5	110,8	27,7
Xovos t.	13,7	233,2	6,4
Guliston sh.	19,6	83,4	9,1
Shirin sh.	0,4	87,1	0,2
Yangiyer sh.	77,9	163,5	36,2




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **36,2 %** ulush bilan **77,9** mln. AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Shirin shahri **0,2 %** ulush bilan **0,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

*(yanvar-mart, mln. AQSH dollarida)*



2023- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **50,4 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,4 %** ga ko‘paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,4 %** ga kamayib va jami TSAdagi ulushi **49,6 %** ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, **108,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **22,5** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **85,9** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 31,4  
Eksport – 14,0  
Import – 17,4



### Qozog'iston

TSA – 72,4  
Eksport – 6,0  
Import – 66,4



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 2,0  
Eksport – 0,5  
Import – 1,5



### Belarus

TSA – 0,4  
Eksport – 0,2  
Import – 0,2



### Tojikiston

TSA – 1,6  
Eksport – 1,3  
Import – 0,3



### Ukraina


TSA – 0,2  
Eksport – 0,2  
Import – 0,0



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**14,6** %), Qozog'iston (**33,7** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**0,9** %) davlatlari bilan qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollarari, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo  
aylanmasidagi ulushi

49,5 %

Jami eksportdagи ulushi

22,6 %

Jami importdagи ulushi

69,5 %



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **106,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **20,7** mln. AQSH dollarari, import hajmi esa **85,6** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtaida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni **95** taga yetdi va ular tomonidan **91,9** mln. AQSH dollari qiymatidagi (*2022-yilning mos davriga nisbatan 37,9 % ga ko'paydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-mart, ulushi % da)



Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

*(yanvar-mart, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	66,7	91,9	124,0	137,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27,7	55,9	104,4	2,0 m.	41,6	60,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,4	2,1	70,0	60,6	5,2	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	5,3 m.	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	0,0	0,0	0,0	1,1	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2,3	2,4	4,2 m.	100,9	3,5	2,6
Sanoat tovarlari	26,1	24,2	175,0	92,9	39,1	26,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,0	1,1	96,1	115,6	1,5	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	4,6	5,3	83,9	115,1	6,9	5,8
Xizmatlar	0,9	0,9	2,3 m.	119,6	1,1	0,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**26,3 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**60,8 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	48 368,2	2,1 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	1,6	2,6
Sabzavotlar va mevalar	7 122,9	146,8
Kofe, choy, kakao,ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7,3	54,5
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	52,1	260,0 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,1	12,4
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	852,2	64,8
Qog'oz massasi va makulatura	1 025,5	65,6
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 085,5	113,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1153,3	92,8
Noorganik kimyo moddalari	0,6	4,9


XSST bo‘limi nomi	Mln. AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	19 149,6	109,7
Rangli metallar	0,4	4,3
Cho‘yan va po‘lat	472,3	49,7 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	1692,3	30,4
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	0,5	0,4
Sanoat uchun maxsus bo‘limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	912,7	128,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	4 745,3	119,9
Har xil tayyor buyumlar	275,3	89,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	280,2	6,0 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqgan mamlakat, agar kelib chiqgan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariiga **22,5** mln. AQSH dollarini qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **24,4** % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lган. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **94,3** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart, % da)





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	6 472,1	8 587,9	58,9	132,7	12	6
Turkiya	6 017,5	5 537,9	2,2 m.	92,0	7	8
XXR	15 760,5	10 379,7	148,9	65,9	8	11
Qozog'iston	2 519,8	4 792,4	82,1	190,2	13	5
Afg'oniston	23 039,7	48 441,5	106,5	2,1 m.	9	4
Qirg'iz Respublikasi	407,0	436,0	31,1	107,1	14	7
Tojikiston	2 545,9	1285,7	5,5 m.	50,5	4	12
BAA	227,2	0,0	10,3 m.	0,1	2	14
Pokiston	1 103,2	2 491,5	78,0	2,2 m.	11	3
Niderlandiya	42,6	0,0	0,0	0,0	16	15
Eron	521,5	239,8	24,8 m.	46,0	1	13
Belarus	9,1	178,5	4,5 m.	19,5 m.	5	2
Polsha	7,8	668,3	2,5	85,3 m.	15	1
Ozarbayjon	256,2	184,7	2,2 m.	72,1	6	10
Turkmaniston	100,1	0,0	107,4	0,0	10	16
Buyuk Britaniya	-	96,1	0,0	0,0	17	17
AQSH	43,3	38,3	10,3 m.	88,4	3	9



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart)\*

	Hajm mln. AQSH dollarli	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	91,9	137,9	100,0
Boyovut t.	8,6	2,2 m.	9,4
Guliston t.	3,6	69,3	3,9
Mirzaobod t.	5,4	80,5	5,9
Oqoltin t.	1,1	124,5	2,2
Sardoba t.	1,4	115,9	1,5
Sayxunobod t.	7,8	132,4	8,5
Sirdaryo t.	18,4	110,8	20,1
Xovos t.	2,3	56,6	2,5
Guliston sh.	5,5	111,0	6,0
Shirin sh.	0,4	0,0	0,4
Yangiyer sh.	37,1	2,2 m.	40,4

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollarli



**Eng quyisi hajm,**  
mln. AQSH dollarli



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **40,4 %** bilan **37,1** mln. AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Shirin shahri **0,4 %** bilan **0,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-mart oylarida **15,2** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **46,8 %** ga yoki **9,5** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**21,7 %**), Pokiston (**30,9 %**), Qozog'iston (**22,1 %**), hamda XXR (**15,5 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **7,1 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **86,8 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **7,7 %** ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart, qiymati)

<b>Uzum yangi uzilgan</b> <b>347,7 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>	<b>Karam</b> <b>4 244,2 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>	<b>Olma</b> <b>15,2 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>	<b>Piyoz</b> <b>145,1 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>
316,7 tonna	10 230,5 tonna	0,36 tonna	344,2 tonna
			
<b>Uzum quritilgan</b> <b>68,3 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>	<b>Grek yong'og'i</b> <b>109,3 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>	<b>Bodring</b> <b>24,8 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>	<b>Limon</b> <b>3,0 ming.</b> <b>AQSH dollari</b>
47,8 tonna	31,5 tonna	20,8 tonna	2,2 tonna
			



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-mart)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollarri	Ulushi, % da *
 Rossiya	982,0	1 544,1	21,7
 Pokiston	930,7	2 203,9	30,9
 Qozog'iston	10 646,3	1 576,8	22,1
 XXR	1 537,0	1 106,6	15,5
 Afg'oniston	420,2	241,2	3,4
 Belarus	61,3	178,5	2,5
 Tojikiston	585,5	250,8	3,5
 Boshqa davlatlar	3,9	21,0	0,4

\* qiyamat ifodasidan



2023- yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **30,9 %**) tashkil qilmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi **123,1** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **114,3 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (**14,3 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**50,1 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**17,2 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,4** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **123,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>107,7</b>	<b>123,1</b>	<b>111,3</b>	<b>114,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	46,4	61,7	156,0	132,9	43,1	50,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,6	4,6	4,5 m.	101,2	4,2	3,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,1	5,0	8,3	161,3	2,9	4,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	4,7	134,6	35,6 m.	0,1	3,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19,8	21,2	2,4 m.	107,3	18,3	17,2
Sanoat tovarlari	5,0	5,5	72,4	108,8	4,7	4,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	26,9	17,7	85,0	65,6	25,0	14,3
Turli xil tayyor buyumlar	1,8	2,1	80,2	119,8	1,6	1,7
Boshqa tovarlar	0,0	0,6	-	0,0	0,0	0,5



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart)


XSST bo'lumi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	56 688,4	139,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	32,1	51,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	3 245,1	2,4 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 141,0	77,7
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	321,2	151,8
Probka va yog'och-taxtalar	845,0	106,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	51,5	34,9
Ko'mir, koks va briketlar	4 959,0	167,6
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	4 739,3	35,5 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	4,2	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	586,1	154,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	11 710,4	88,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 862,2	187,5
Noorganik kimyo moddalari	218,7	34,9

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	1 088,6	199,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 295,9	2,7 m.
Ruda bo'Imagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	656,0	96,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 737,7	69,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	12,8	2,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12 482,4	62,4
Sanoat uchun maxsus bo'Imagan mashinalar va ularning detallari	1 935,9	35,1
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 720,7	10,7 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	660,9	124,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	501,3	83,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	788,4	5,8 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	62,1	19,3



2023- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **69,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **38,7 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



 2023- yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyati **63** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Germaniya, Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Niderlandiya) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### SIRDARYO VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart, % da)





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

*(yanvar-mart, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Germaniya	2 838,2	1 618,7	159,1	57,0	12	13
Rossiya	8 495,6	17 466,7	17,5	2,0 m.	16	4
XXR	18 328,0	20 356,1	112,4	111,1	15	10
Qozog'iston	47 432,1	66 385,3	128,1	140,0	13	5
Turkiya	3 924,1	4 294,2	192,0	109,4	11	11
Koreya Respublikasi	4 808,3	502,4	26,8 m.	10,4	1	17
Litva	488,6	0,3	5,9 m.	0,1	4	18
Fransiya	376,6	1 104,4	3,5 m.	2,9 m.	6	3
Niderlandiya	3,5	14,0	8,0	4,3 m.	17	2
Turkmaniston	4 087,7	0,0	2,3 m.	0,0	10	19
Hindiston	356,5	379,9	3,3 m.	111,6	7	9
Belarus	318,8	238,5	3,1 m.	74,8	8	12
Italiya	8 373,3	3 132,1	19,2 m.	37,4	2	15
Buyuk Britaniya	3,5	14,0	8,0	4,3 m.	18	1
Eron	1 064,8	537,4	2,3 m.	50,5	9	14
Polsha	167,7	194,1	7,3 m.	115,8	3	8
AQSH	-	22,5	-	-	20	20
Estoniya	63,6	80,3	117,7	126,2	14	7
Avstrya	656,1	167,4	6,6	25,5	19	16
Qirg'iz Respublikasi	1 124,7	1 501,8	4,8 m.	133,5	5	6



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-mart)

	Hajm Mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>123,1</b>	<b>114,3</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	5,1	117,6	5,4
Guliston t.	0,2	45,4	0,2
Mirzaobod t.	1,1	75,2	0,9
Oqoltin t.	0,5	93,1	0,4
Sardoba t.	0,2	12,7	0,2
Sayxunobod t.	6,9	76,7	5,6
Sirdaryo t.	41,0	110,8	33,3
Xovos t.	11,4	6,5 m.	9,2
Guliston sh.	14,1	76,0	11,4
Shirin sh.	-	-	-
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>40,8</b>	<b>132,6</b>	<b>33,2</b>

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollarlari



**Eng quyisi hajm,**  
mln. AQSH dollarlari



Viloyat import tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumanida **33,3 %** bilan **41,0** mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **17,7 mln. AQSH dollarini** tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **34,4 %** ga kamaydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **14,3 %** ni tashkil qildi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-mart)




2023- yil yanvar-mart oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,3 mln. AQSH dollariga** ka'maydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Fransiya — **1,0 mln. AQSH dollari (5,6 %)**, XXR — **9,0 mln. AQSH dollari (50,8 %)** va Turkiya — **3,2 mln. AQSH dollari (18,1 %)** kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **5,5** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,7 %** ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **4,4 %** ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)

**2,2 mln. AQSH doll.  
ulushi – 39,6 %**

**1,3 mln. AQSH doll.  
ulushi – 24,5 %**



Rossiya  
Federasiyasi



XXR

**0,6 mln. AQSH doll.  
ulushi – 11,4 %**



Turkiya



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (**1,7** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**1,3** mln. AQSH dollari), ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (**0,7** mln. AQSH dollari), rangli metal (**0,3** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.